

QO‘QON XONLIGINI O‘RGANISHDA "TARIXIY TURKISTON" ASARI
AHAMIYATI

Abdullayev Shohruh Ulug`bek o`g`li
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi tarixini yoritishda Mirzo Olim Mahdum hojining “Tarixi Turkiston” asarining ahamiyati va Qo‘qon tarixnavisligidagi mohiyati bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Qo‘qon xonligi tarixnavisligi namunalarining turli tillarda bayon etilganligi, mualliflarning asarda keltirilgan haqqoniy ma’lumotlari bo‘yicha fikr-mulohazalar keltirilib o’tilgan.*

Kalit so‘zlar: “Tarixi Turkiston” asari, Mirzo Olim Mahdum hoji, mahalliy manbalar

KIRISH

Qo‘qon xonligi (1709-1876) tarixan qisqa vaqt bo’lsa-da, O'rta Osiyo xalqlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida katta ro'l o'ynagan edi. Bu davrni o‘rganishda turli manbalar va o‘scha davrda yozilgan asarlar muhim o‘rin tutadi. Qo‘qon xonligi tarixi bo‘yicha yaratilgan mahalliy tarixchilarining asarlari soni 30 dan oshadi. Keng ko‘lamdagi bu manbalarda xonlikning siyosiy tarixi, madaniyati va uning turli hududlarida yuz bergen voqealar tafsilotlari bayon qilingan. Qo‘qon tarixchilari asarlarida qo‘shti mamlakatlar tarixi ham mavjud.

Qo‘qon xonligining XIX asrga oid tarixini o‘rganishimizda dastlabki mahalliy manbalar Muhammad Hakimxonto`raning - "Muntaxab at tavorix" asari, Muhammad Solih Toshkandiyning - "Tarixi jadidayi Toshkand", Niyoz Muhammad Hoqandiyning - "Tarixi Shohruhiy", Mirzaolim Mushrifning - "Ansob us-salotin vatavorix ul-xavoqin", Ishoqxon Ibratning - "Tarixi Farg'ona", Muhammad Yunus Toibning "Tarixi Aliquli amirlashkar" kabi asarlar muhim ahamiyatga ega.

Xonlik tarixiga oid yana bir ahamiyatli manba Mulla Olim Maxdum Hojining “Tarixi Turkiston” asaridir. Asar 1992-yili “Qarshi” nashriyotida lug'at va izohlar bilan nashr qilingan. 2008-yilda ushbu asar Toshkentda “Yangi asr avlod” nashriyotida qayta nashr etildi. Asar sodda, tushunarli tilda yozilgan. Muallif Mirzo Olim Maxdum hoji uzoq yillar «Turkiston viloyati gazeti»da muharrirlik qilgan mahalliy ziyolillardan bo‘lib, uning tarjimayi holi aniq va bat afsil ma’lum emas. Uning «Tarixi Turkiston» asarining birinchi

qismi 1908-1915-yillar davomida o’zi boshchilik qilayotgan gazetada bosilib chiqqan va 1915-yili Rossiya imperiyasi tomonidan Toshkentning bosib olinishining 50-yillik sanasi munosabati bilan alohida kitob holida Turkiston general-gubernatori harbiy okrugi bosmaxonasida chop etilgan. Biroq, asarda ko’pgina texnik xatolar, harflarning xato terilishi ko’zga tashlanadi.

Asar Turkiston xonlari tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o’lkaning keyingi 50 yil davomida yuz bergan o’zgarishlari mahalliy muallif tomonidan tahlil qilinadi. Oltin beshik afsonasidan hikoya boshlanib, Umarxon ibn Norbo`taxon, Muhammad Alixon ibn Umarxon hukumati davri haqida batafsil ma’lumot yozib, Sheralixonni taxtga kelishi hamda Buxoro amirining Qo`qonga ikkinchi bor bostirib kelishi va uning maqsadiga yetolmay qaytib ketgani bayon qiladi. U 1915-yili «.. musulmoniya asri ilan ellik yil miyonasida farq va tafovutini andin bayon aylab, tarixning birinchi jildini tamom qildim»¹, deb asarining ikkinchi jildini boshlaganini ma’lum qiladi.

Mazkur asarning Qo‘qon tarixchilarasi asarlaridan farqi hamda ahamiyatli jihat shundaki, muallif unda Qo‘qon xonligi tarixidan so‘ng Buxoro amirligi va Xorazm davlati tarixini qisqacha bayon qiladi.

« Buxoro ko‘p eski va qadimgi shaharlardan bo‘lub, hazrati Muoviyaning zamoni sultanatida Abdullohi Ziyod tarafidin musaxxar qilmoqda bo‘lsa ham, Buxoraga hokima bo‘lub turgan Xotun podshoh ba’zi sharoitlar ila sulh qilmish edi. Ba’da ellik beshinchi tarixi hijriyda (674) yana hazrat Muoviyta tarafidin Xuroson voliysi bo‘lub turgan Said ibn Usmon ibn Affon roziallohu anhu, tarafidin fath bo‘lin mish edi. Xilofati abbosiya zamonida qilgan salotini somoniylar Buxoroni poytaxt qilib, ko‘p imoratlar va ziynatlar bergen edi.»² deya ma’lumotlar keltirib o’tadi. Mirzo Olim Ikki xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy holati, oddiy xalq hayoti va o`sha davr xo`jaligini aniqlik bilan yozib o’tgan.

Mirzo Olim Qo‘qon xonligidagi unvon, mansablar va amallarga ham batafsil to`xtalib o’tadi. U xonlikdagi amaldorlarni 24 darajaga bo‘lib, quyidagi ma’lumotlarni beradi:

«Xo‘qand xonliklari asrida joriy bo‘lub turgan har xil mansablar, chunonchi: Mingboshi va Amiri lashkarlik mansabi. Bu mansab voennuy ministirlik qatorida bo‘lub, ondin boshqa hukumatning hamma ishiga mudoxalasi, chunonchi, xorijiya, doxiliya ishlariga tamom daxli bo‘ladur.

Qushbegilik mansabi. Bu mansabdagi odamlar doimo xon huzurida maslahatchi qatorida turub va yoki biror katta shaharga hokimi bil-istiqbol

¹ Мирзо Олим Махдум ҳожи. Тарихи Туркистон. – Янги аср авлоди, 2009. – Б.165

² Мирзо Олим Махдум ҳожи. Тарихи Туркистон. – Янги аср авлоди, 2009. – Б.190

nasib qiladur. Shig’ovul. Bu odam vaziri ilmiyadek bo’lub, qozi, mudarris, a’lam, shayx ul-mashoixlar oning ko’rsatgani bo’yicha tayin qilinib, bularning taftishlari ham anga oiddir.

Xudaychi. Bu zot xonga adyutant (ad’yutant) hukmida bo’lub, xonga maxsus beriladurgon arizaga va bo’lak ishlarga vosita bo’ladur.

Tunqator. Bu mansabdagi odam xonning maxsus yotadurgon joyiga posbondek, kechasi doimo uxmlamay, xonning amriga muntazir bo’lib turadur».

Undan tashqari Dahboshi, Bakovulboshi, Yuzboshi, Mirzoboshi, Devonbegi, Xazinachi, Dasturxonchi, Sharbatdor, Eshikog’aboshi, To’qsabo, Dodxoh Otaliq kabi mansabdorlar bo’lgan.

«Ushbu mansabdorlarning hech qayularida muqarrar vazifa bo’lmay, Qushbegi (parvonachi)larga biror katta shahar va andin kichiklarga qishloq va yo biror arig’ berib, boshqa mansabdorlarga podshohlikdin ot, libos, aslahा, bir yilda ikki-uch marotaba g’alla, sarupo berar edilar. Mundin boshqa bir necha mayda mansablar ham bo’lur edi. Ilmiya va huquq mansablaridan qozi ul-quzzot, qoziyi askar, qoziyi maxsus, a’lam, muftiy, mudarris. Bularning har qayularining o’zlariga maxsus lavozimlari bo’ladur. Yana shayx ul-islom, shayx ul-mashoix mansablari ham bor edi».

Shodmon Vohidovning fikricha “Mullo Olimning bu qaydlarida ma’lum ziddiyatlar uchrashidan qat’i nazar, bu masalaga bag’ishlangan birinchi izlanishlardan bo’ldi. U mavjud mansab va unvonlarini tasnif qilib, ularni darajabandlik qilgan.”³

Muallif Rossiya imperiyasining Turkiston shahriga bostirib kirishi va uni o’z tasarrufiga kiritishini quyidagi mazmunda tahlil qiladi: «Turkiston shahrig’a Mirzo Davlat tojikni hokim qilib ketgandin keyin Mirzo Davlat kibr va g’urur ilan sarhadda qarab va poylab turgan ulug’ Rossiya davlatini ko’zga ilmay va atrofidagi qozoqiyalarning g’arib va bechoralik va davlatxohliklarini andisha va mulohaza qilmay, besh kunlik hukumatga mag’rur bo’lub, bir necha qaroqchilarni Turkistong’a yig’ib, elatiyalarni talon-toroj va betinch qila bopshabdur. Mirzo Davlatning bul tariqa yomon fe’li va zulmidin elatiya xalqi va biylari tang bo’lub qochar va noilojlikdin oning itoatidin chiqib, Rossiya hukumatig’a tobe bo’lmakni ixtiyor qilibdur. Biloxir, ul zolimning zulmi va sharri kasofatidin majmui elatiya va uzbakiya va Turkiston atrofidagi qozoqiyalar Rossiyalarg’a borib aytibdurlarkim, alhol Turkiston shahri ichidagi xalqdin boshqa hamma tavobioltlari Rossianing tahti tasarrufig’a kirgandur. Movaraunnahr xonlari, chunonchi, Buxoro va Xo’qand xonlari orasida adovat

³ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shodmon-vohid-qoqon-xonligidagi-unvon-va-mansablar.html> (13.09.2019-yil)

va xusumat paydo bo'lub, amiri Buxoro Farg'ona mamlakatini tahti tasarrufig'a olmoq muddaosidadur. Agar Buxoro va Farg'ona bir mamlakat bo'lub qolsa, ul holda Buxoro mahkumi ikki poytaxtni ihota qilib, to Tibet va Qandahor tog'laridin tortib, lashkar jam qilgudek bo'lsa, ish og'ir bo'ladur. Alhol olarning oralarida nizo va beittifoqlik paydo bo'lub turgan holda ishni tezlik va osonlik ilan saranjom qiladurmiz, xususan Sirdaryoning kema o'tadurgon joylari Rossiya qo'lig'a kirgan vaqtida ikki mamlakat, ya'ni Buxoro va Xo'qand va Toshkand orasi band bo'lub, Movaraunnahr mamlakati osonlik ilan qo'lga kiradur»⁴

Mirzo Olim Toshkand shahrining bosib olinishini ham O'rta Osiyodagi ikki mamlakat orasidagi qarama-qarshilik va ichki nizolardan deb biladi: «Rossiyalar Toshkandni muxosara qilib turgan vaqtida ikki hamsoya musulmoniya mamlakatlarining podshohhlari Rossiyalarning to'p ovozi yetadurg'on yaqin masofada mamlakatlarig'a istilo kilib kelib, urush qilib turg'on holda, anga ahamiyat bermay, bir-birlari ilan urush-talash qilishib, viloyatni barbod berdilar, ya'ni Rossiyalar himoyatsiz qolgan Toshkand shahrini bir necha kun qamab, oxiri 1865-yil 15-iyunda subh vaqtida Kamolon darvozasidin kirib fath qildilar».⁵

Xulosa: Mirzo Olim har qanday xalqning uyg'onishi ham, inqirozi ham axloqdan ekanini yaxshi tushungan holda yozadi: "Xudovandi karim biror qavmini tag'yir ut-tabdil qilmoqni xohlasa, avvalo ul qavmning axloq va atvorini tag'yiru tabdil qiladur. Bu so'zlar garchand durusht va achchig' so'zlar bo'lsa ham, lekin insof nazari ilan qaralsa, to'g'ri va rost so'zlardur. Tarix yozadurgan muarrixlar madh-u ta'rif yozadurgon munshiy va mirzolardin bo'lmay, voqeiy so'zlarni yozadur".⁶ Mirza Olim Maxdum hoji ilm va ma'rifikat tarafdori sifatida barcha elatdoshlarini turli ilm va kasblarni urganishga, rivojlangan millatlar kabi taraqqiyotga intilishga da'vat qiladi va "ilmi dinsiz oxirat yo`li topilmagandek, maorif va kamolotsiz dunyo yo'llari ham topilmas", degan xulosaga keladi. Darhaqiqat ziyoli tarixchining asari Qo`qon xonligini o`rganishda balki o`zbek davlatchiligidagi muhim manba ekanligiga ayon bo`ldik, uning yurt dardi ila yozgan asari biz avlodlarga saboq va tariximixni o`rganmoq uchun dasturulamal bo`lib xizmat qiladi.

⁴ Мирзо Олим Маҳдум ҳожи. Тарихи Туркистон. – Янги аср авлоди, 2009. – 5.39

⁵ Мирзо Олим Маҳдум ҳожи. Тарихи Туркистон. – Янги аср авлоди, 2009. – 5.40

⁶ Мирзо Олим Маҳдум ҳожи. Тарихи Туркистон. – Янги аср авлоди, 2009. – 5.160

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзо Олим Махдум ҳожи. Тарихи Туркистан. - Янги аср авлоди, 2009. – Б.241.
2. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигига тарихнавислик. Akademnashr, 2010. – Б.307.
3. Kuzikulov I. Qo'qon xonligi tarixi. – Namangan. 2014. – B. 84.
- 4.<https://cyberleninka.ru/article/n/qoqon-xonligi-tarixshunosligini-yoritishda-tarixnavislik-maktabi/viewer>
- 5.<https://shosh.uz/uz/xix-asr-ikkinci-yarmi-xx-asr-boshlarida-toshkentning-ijtimoiy-iqtisodiy-va-siyosiy-hayotini-yorituvchi-manbalar-tahlili/>
6. <https://malumot.ru/qo%CA%BBqon-xonligi/>
7. <https://zenodo.org/records/7525630>
8. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shodmon-vohid-qoqon-xonligidagi-unvon-va-mansablar.html>